



# XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



## XORAZM VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2023- yil 1- noyabr holatiga ko'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)*

*Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi  
Adliya Vazirligi Davlat xizmatlari markazi  
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi*

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta‘minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.


Jumladan, 2023- yil 1- noyabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 27 655 tani tashkil etdi (ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar 24 417 ta).

## Korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida umumiy ma‘lumotlar

(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1- noyabr holatiga ko‘ra, birlikda)

Faoliyat ko‘rsatayotgan


Ro‘yxatdan o‘tgan




## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

2023- yil yanvar-oktabr oylarida, birlikda


Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo



Axborot va aloqa




Sanoat



Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

2023- yil yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 2022- yilning mos davriga nisbatan 600 taga ko'payganligini ko'rish mumkin.


Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha oxirgi uch yil mobaynida yangi tashkil etilgan ma'suliyati cheklangan jamiyatlar soni 1 692 taga, xususiy korxonalar - 383 taga ko'paygan.

## Hududlar kesimida


Urganch sh.	748	14,2%	Yangiariq t.	404	23,9%
Shovot t.	556	30,6%	Xiva t.	364	19,0%
Urganch t.	548	18,5%	Xiva sh.	340	16,0%
Qo'shko'pir t.	514	23,6%	Xonqa t.	332	16,0%
Bog'ot t.	509	26,1%	Yangibozor t.	316	24,3%
Gurlan t.	466	24,4%	Tuproqqal'a t.	157	20,8%
Hazarasp t.	443	25,7%			

2023- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda

## Yillar kesimida soni



## Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va  
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar


2023- yil 1- noyabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 2019- yilning mos davriga nisbatan 9 421 taga oshganligini quyidagi sohalarida korxonalar sonining sezilarli o'sishi bilan ifodalash mumkin: savdoda – 4 846 tadan 9 447 taga (o'sish 4 601 ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 1 589 tadan 2 787 taga (o'sish 1 198 ta), sanoatda – 3 006 tadan 4 181 taga (o'sish 1 175 ta).

## Hududlar kesimida

Urganch sh.	5 270	Gurlan t.	1 907
Urganch t.	2 956	Shovot t.	1 819
Qo'shko'pir t.	2 174	Yangiariq t.	1 724
Xiva sh.	2 126	Hazorasp t.	1 691
Xonqa t.	2 070	Yangibozor t.	1 300
Bog'ot t.	1 949	Tuproqqal'a t.	755
Xiva t.	1 914		


2023- yil yanvar-oktabr oylarida, birlikda

Yillar kesimida soni




Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)


27,6% 22,0% 17,1% 19,8% 22,9%




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Sanoat



Qurilish




Savdo




Tashish va saqlash




Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib berish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida, yildan-yilga ularning investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda. 2023- yil yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 5 619 ta bo'lib, shundan:


- mikrofirmalar va kichik korxonalar - 5 594 tani;
- yirik korxonalar - 25 tani tashkil etdi.

Hududlar kesimida


Urganch sh.	719	15,7%	Yangiariq t.	403	26,7%
Shovot t.	553	34,8%	Xiva t.	359	20,9%
Urganch t.	541	20,1%	Xiva sh.	336	17,0%
Qo'shko'pir t.	510	26,1%	Xonqa t.	328	17,7%
Bog'ot t.	504	29,1%	Yangibozor t.	314	27,6%
Gurlan t.	464	27,4%	Tuproqqal'a t.	150	23,7%
Hazorasp t.	438	29,3%			

2023- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda

## Yillar kesimida soni



## Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar


Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2023- yil 1- noyabr holatiga 24 555 taga yetib, 2019- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 161,7 foizni tashkil etdi (9 371 ta). Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 38,5 foiz, sanoat – 17,0 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 11,3 foiz, qurilish – 7,2 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 6,8 foiz, tashish va saqlash – 4,6 foiz, axborot va aloqa – 1,5 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 2,2 foiz, boshqa turlari – 10,9 foiz.

## Hududlar kesimida


Urganch sh.	4 581	Gurlan t.	1 694
Urganch t.	2 690	Shovot t.	1 587
Xiva sh.	1 973	Yangiariq t.	1 512
Qo'shko'pir t.	1 951	Hazorasp t.	1 496
Xonqa t.	1 850	Yangibozor t.	1 137
Bog'ot t.	1 730	Tuproqqal'a t.	634
Xiva t.	1 720		

2023- yil yanvar-oktabr oylarida, birlikda


## Yillar kesimida soni



## Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo



Axborot va aloqa




Sanoat



Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Mamlakat iqtisodiyotining "sog'lomligi"ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.


2023- yil yanvar-oktabr oylarida savdo sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2022- yilning mos davriga nisbatan 1 843 tadan 2 372 taga (o'sish 529 taga), tashish va saqlashda – 241 tadan 343 taga (o'sish 102 taga), qurilishda – 181 tadan 215 taga (o'sish 34 taga) ko'paydi.

## Hududlar kesimida


Urganch sh.	719	15,9%	Yangiariq t.	402	26,7%
Shovot t.	553	35,0%	Xonqa t.	356	20,8%
Urganch t.	540	20,2%	Xiva t.	336	17,1%
Qo'shko'pir t.	509	26,2%	Xiva sh.	321	17,5%
Bog'ot t.	503	29,2%	Yangibozor t.	311	27,5%
Gurlan t.	456	27,0%	Tuproqqal'a t.	150	23,8%
Hazorasp t.	438	29,4%			

2023- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda

## Yillar kesimida soni



## Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Hududiy kesimda eng ko'p kichik biznes subyektlari Urganch shahrida (18,6 foiz), Urganch tumani (11,0 foiz), Xiva shahri (7,0 foiz), Qo'shko'pir (8,0 foiz) va Xonqa (7,5 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

Ma'lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.

## Hududlar kesimida


Urganch sh.	4 533	Gurlan t.	1 686
Urganch t.	2 677	Shovot t.	1 581
Xiva sh.	1 969	Yangiariq t.	1 504
Qo'shko'pir t.	1 945	Hazorasp t.	1 488
Xonqa t.	1 838	Yangibozor t.	1 131
Bog'ot t.	1 721	Tuproqqal'a t.	631
Xiva t.	1 713		



**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat  
ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma‘lumotlar**  
2023- yil 1- noyabr holatiga ko‘ra, birlikda

**Hududlar kesimida**


Gurlan t.	423
Urganch t.	331
Qo‘shko‘pir t.	309
Xonqa	301
Xiva t.	250
Yangiariq t.	235
Bog‘ot t.	200
Shovot	182
Yangibozor t.	168
Tuproqqal‘a t.	109
Hazorasp t.	105
Xiva sh.	92
Urganch sh.	82



O‘zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning chuqur o‘ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to‘liq ta‘minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo‘nalishlardan biriga aylandi.


**Baliq ovlash va akvakultura**



2023- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda


## Hududlar kesimida

Urganch sh.	753
Urganch t.	456
Qo'shko'pir t.	417
Xonqa t.	373
Xiva t.	302
Xiva sh.	300
Shovot t.	268
Bog'ot t.	264
Gurlan t.	243
Hazorasp t.	232
Yangiariq t.	225
Yangibozor t.	202
Tuproqqal'a t.	146



Sanoat tarmog'i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi. So'nggi besh yil ichida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari sonining o'sish sur'ati 139,1 foizni tashkil etdi.


Sanoat korxonalari soni jami korxonalar va tashkilotlarning 15,1 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 97,8 foizini ishlab chiqarish sanoati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 88,3 foiz), 0,5 foizini tog-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (o'sish sur'ati 100,0 foiz), 1,4 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish (o'sish sur'ati 89,2 foiz) va 0,3 foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (o'sish sur'ati 75,0 foiz) tashkil etgan.



2023- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida

Urganch sh.	402
Xiva t.	252
Urganch t.	216
Xiva sh.	190
Qo'shko'pir t.	155
Xonqa t.	114
Shovot t.	96
Yangiariq t.	92
Gurlan t.	65
Bog'ot t.	63
Yangibozor t.	61
Hazorasp	56
Tuproqqal'a t.	31




Qurilish sohasining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 55,7 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 83,4 foizni;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 19,2 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 102,1 foizni;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 25,1 foiz ulushni va 75,0 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi.


344

Fuqarolik  
obyektlarini qurish



451

Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari




998

Bino va  
inshootlar qurish

2023- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida

Urganch sh.	1 645
Urganch t.	1 041
Bog'ot t.	827
Xiva sh.	731
Shovot t.	701
Qo'shko'pir t.	688
Hazorasp t.	685
Yangiariq t.	641
Xonqa t.	598
Gurlan t.	598
Xiva t.	580
Yangibozor t.	473
Tuproqqal'a t.	239



Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxonalar savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,8 foizi yoki 9 428 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 65,0 foiz ulushni tashkil etgan bo'lib, 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda o'sish sur'ati 105,1 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishi 23,5 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 105,8 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishi 11,5 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 118,9 foizni tashkil etdi.

**1 088**

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

**2 217**

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo


**6 142**

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

2023- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida

Urganch sh.	404
Xiva sh.	285
Urganch t.	172
Xonqa t.	102
Gurlan t	99
Shovot	97
Bog'ot t.	91
Yangibozor t.	86
Xiva t.	85
Qo'shko'pir t.	78
Yangiariq t.	70
Hazorasp t.	59
Tuproqqal'a t.	44



2023- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar o'sish sur'ati 2019- yilning mos davriga nisbatan 140,2 foizni tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgo'hlari, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 14,4 foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 85,6 foiz ulushini tashkil etdi.

241

Yashash bo'yicha xizmatlar



1 431


Oziq- ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar



2023- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida


Urganch sh.	120
Xiva sh.	47
Xonqa t.	36
Urganch t.	32
Gurlan t.	27
Qo'shko'pir t.	26
Yangiariq t.	25
Xiva t.	25
Shovot t.	22
Bog'ot t.	17
Hazorasp t.	8
Yangibozor t.	8
Tuproqqal'a t.	3



2023- yil 1- noyabr holatiga ko'ra noshirlik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 22,2 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 111,4 foizni tashkil etdi.

Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirishlar hamda aloqa yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 34,6 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 95,1 foizni tashkil etdi.


Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko'rsatish yo'nalishlarida esa korxonalar soni axborot va aloqa sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning 43,2 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 97,7 foizni tashkil etdi.



2023- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida

Urganch sh.	217
Xiva sh.	54
Urganch t.	52
Xonqa t.	45
Gurlan t.	41
Xiva t.	37
Shovot t.	36
Hazorasp	36
Qo'shko'pir t.	28
Yangiariq	27
Bog'ot t.	25
Yangibozor t.	20
Tuproqqal'a t.	8



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxonalar va tashkilotlarning salmoqli qismi, ya'ni 544 tasi yoki 86,9 foiz ulushi kichik tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

- sog'liqni saqlash yo'nalishiga 94,3 foiz korxonalar to'g'ri kelib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 104,6 foizni tashkil etdi;
- yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni 3,5 foizni tashkil etib, o'sish sur'ati 88,0 foizni tashkil etdi;
- yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 2,2 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 140,0 foizni tashkil etdi.

14

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

22




590

Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

2023- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida

Urganch sh.	230
Hazorasp t.	164
Xonqa t.	113
Urganch t.	113
Bog'ot t.	82
Shovot t.	81
Qo'shko'pir t.	79
Xiva sh.	67
Gurlan t.	67
Xiva t.	51
Yangiariq t.	40
Yangibozor t.	23
Tuproqqal'a t.	19



2023- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni jami viloyatdagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 4,1 foizni tashkil etdi.


2022- yilning mos davri bilan solishtirganda tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

- quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish sur'ati 107,3 foizni tashkil etdi;
- ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining o'sish sur'ati 116,9 foizni;
- pochta va kuryerlik yo'nalishi 2,4 marta oshdi;
- havo transporti yo'nalishida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 2,5 marta oshdi.





**Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy  
shakli bo‘yicha umumiy ma’lumot**  
2023- yil 1- noyabr holatiga ko‘ra, birlikda




Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma’lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta’minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.


2023- yil yanvar-oktabr oylarida, birlikda

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)


Yillar kesimida soni




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish




Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

**Mas'uliyati cheklangan jamiyati** – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalarini qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagani ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


## Hududlar kesimida

Urganch sh.	510	Xiva t.	258
Hazorasp t.	408	Xiva sh.	219
Qo'shko'pir t.	406	Shovot t.	204
Gurlan t.	385	Xonqa t.	158
Urganch t.	368	Tuproqqal'a t.	137
Yangiariq t.	337	Yangibozor t.	127
Bog'ot t.	336		


2023- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2023- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan 24 555 ta tijorat korxonasi va tashkilotlarining 14 169 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hissasiga to'g'ri keladi. Mazkur jamiyatlar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

Sohalar kesimida o'sish sur'atlarining tahlili shuni ko'rsatdiki, eng yuqori ko'rsatkich yashash va ovqatlanishda 118,4 foiz, savdoda – 116,1 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda – 114,3 foiz, tashish va saqlashda – 111,1 foiz, axborot va aloqada – 110,0 foizni tashkil etdi.


## Hududlar kesimida

Urganch sh.	2 645	Xiva t.	996
Urganch t.	1 412	Bog'ot t.	990
Hazorasp t.	1 240	Xonqa t.	799
Gurlan t.	1 176	Shovot t.	687
Qo'shko'pir t.	1 092	Tuproqqal'a t.	538
Xiva sh.	1 149	Yangibozor t.	402
Yangiariq t.	1 043		


2023- yil yanvar-oktabr oylarida, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



**Xususiy korxonalar** – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e'tirof etiladi. Xususiy korxonalar tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxonalar o'z mulkida alohida mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

2023- yil yanvar-oktabr oylarida savdoda yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni 2022- yilning mos davriga nisbatan 166 taga, sanoatda 52 taga, tashish va saqlashda 28 taga ko'paygan.


## Hududlar kesimida

Shovot t.	255	Urganch t.	56
Yangiyo'z t.	138	Xiva sh.	23
Urganch sh.	128	Hazorasp t.	13
Xonqa t.	116	Xiva t.	7
Bog'ot t.	91	Yangiariq t.	5
Qo'shko'pir t.	59	Tuproqqal'a t.	1
Gurlan t.	63		

2023- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

2023- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni 2019- yilning mos davri bilan solishtirilganda 5,5 foizga ko'paygan.


Xususiy tadbirkorlik subyektlari o'sish sur'atlarining 2019- yilning mos davriga nisbatan qurilish (123,5 foiz), tashish va saqlash (118,2 foiz), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish sohalari (109,4 foiz), tumanlar kesimida esa – Shovot (196,7 foiz), Bog'ot (141,0 foiz), Qo'shko'pir (132,3 foiz), Yangibozor (120,1 foiz), Xonqa (117,5 foiz) tumanlari ta'sir ko'rsatmoqda.

## Hududlar kesimida


Urganch sh.	1 232	Xiva sh.	307
Urganch t.	621	Bog'ot t.	275
Shovot t.	539	Xiva t.	268
Xonqa t.	531	Hazorasp t.	102
Yangibozor t.	430	Yangiariq t.	90
Gurlan t.	373	Tuproqqal'a t.	33
Qo'shko'pir t.	336		

2023- yil yanvar-oktabr oylarida, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat  
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)

## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



**Oilaviy korxon** – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxon ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxon ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir.

Oilaviy korxon faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.


## Hududlar kesimida

Urganch t.	116	Xonqa t.	54
Xiva t.	94	Yangibozor t.	49
Shovot t.	94	Qo'shko'pir t.	45
Xiva sh.	93	Hazorasp t.	17
Urganch sh.	81	Gurlan t.	15
Bog'ot t.	76	Tuproqqal'a t.	12
Yangiariq t.	59		

2023- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa

Sog'liqni saqlash va  
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Boshqa turlar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2023- yil 1- noyabr holatiga ko'ra 2019- yilning mos davriga nisbatan 2 692 taga ko'paygan.

Bu esa quyidagi sohalardagi: savdoda – 579 tadan 1 949 taga (o'sish 1 370 taga), sanoatda – 616 tadan 1 244 taga (o'sish 628 taga), yashash va ovqatlanishda – 578 tadan 848 taga (o'sish 270 taga) korxonalar sonining o'sishi bilan izohlanadi.


## Hududlar kesimida

Urganch sh.	652	Yangiariq t.	361
Urganch t	642	Shovot t.	343
Xiva sh.	559	Yangibozor t.	279
Xonqa t.	511	Hazoraspt.	140
Bog'ot t.	450	Gurlan t.	125
Qo'shko'pir t.	450	Tuproqqal'a t.	56
Xiva t.	441		

2023- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Keyingi 5 yilda chet el investitsiyasi ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 6,3 foizga oshdi.

Yetakchi o'rinni 134 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Turkiya Respublikasi egallagan. Bu viloyatda chet el investitsiyasi ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 29,1 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, Xorazm viloyatiga o'z kapitalini kiritayotgan Rossiya Federatsiyasi (ulushi 25,4 foiz), Turkmaniston (ulushi 11,2 foiz), Xitoy (ulushi 3,7 foiz) va Janubiy Koreya (ulushi 3,7 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

## Hududlar kesimida

Urganch sh.	56	Yangibozor t.	5
Urganch t.	11	Tuproqqal'a t.	5
Xiva t.	9	Yangiariq t.	5
Xiva sh.	9	Hazorasp t.	5
Xonqa t.	9	Qo'shko'pir t.	4
Gurlan t.	7	Bog'ot t.	4
Shovot t.	5		



2023- yil yanvar-oktabr oylarida, birlikda



O'zbekistonda iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, xalqaro aloqalarni kengaytirish va to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalar uchun qulay huquqiy muhit yaratish bo'yicha keng qamrovli iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar olib borilmoqda. Mamlakatning strategik geografik joylashuvi, boy va xilma-xil tabiiy resurslari o'sish uchun ulkan imkoniyatlarni namoyon etadi. O'zbekiston hukumati o'z fuqarolarining farovonligini oshirish, biznesni rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish maqsadida, chet el investitsiyalarini ko'paytirishga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

2023- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda



O'zbekistonning yangi tashqi siyosatining asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, chet el investitsiyasi ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 72 tasi qo'shma korxonalar, 62 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

*2023- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda*

## chet el korxonalar

## qo'shma korxonalar

28	Urganch sh.	28
4	Xiva sh.	5
2	Bog'ot t.	2
3	Gurlan t.	4
2	Qo'shko'pir t.	2
6	Urganch t.	5
3	Hazorasp t.	2
3	Tuproqqal'a t.	2
4	Xonqa t.	5
3	Xiva t.	6
1	Shovot t.	4
2	Yangiariq t.	3
1	Yangibozor t.	4

2023- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda



So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, chet el investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reyestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reyestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Yuridik shaxslarning faollik darajasi** – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- sentabrdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

**Chet el ishtirokidagi korxonalar** – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2023- yil 1- noyabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



## **Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri**

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, soʻralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qoʻyilgan.



Statistik registrlarni yuritish  
boʻlimi

Tel.: (62) 22-4-65-11